

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON, 2024

O'ZBEK VA KOREYS TILLARIDA SO'Z TURKUMLARINING O'RGANILISHI

*Shermatova Shahnoza Abdujalol qizi
Samarqand davlat chet tillar instituti*

Anntotasiya: Ushbu maqolada o'zbek va koreys tillarida so'z turkumlarining o'rganilishiga bag'ishlangan bo'lib, koreys tilini o'rgangan tilshunoslar va ularning so'z turkumlarining o'rgangan xulosalari haqida gap boradi.

Annotation: This article is devoted to the study of word groups in the Uzbek and Korean languages, and talks about the linguists who studied the Korean language and their conclusions about the word groups.

Kalit so'zlar: So'z tarkumlari, morfologiya, ot, fe'l, sarf, shakl, vazifa, 한글, 명사 대명사, 감탄사.

Mahmud Koshg'ariy arab tilshunosligi an'analarini asosida turkiy tillarda ham uchta so'z turkumini ajratadi: otlar (ismlar), fe'llar va yordamchilar (harflar). Bu so'z tarkumlari ichida ayniqsa fe'llarni chuqur tahlil etiladi. Fe'llarning zamon, nisbat, shaxs kategoriyalari haqida ma'lumot beradi. Fe'llar uch zamonga: o'tgan, hozirgi va kelasi zamonalarga bo'linadi. "Fe'lning o'tgan zamon shakli hamma fe'llarda-di qo'shilib yasaladi, hech qayerda o'zgarmaydi", deyiladi. Mahmud Zamahshariy grammatikaga doir asarlari ichida "Al-Mufassal" arab tili morfologiyasi va sintaksisini o'rganishda eng muhim qo'llanma sifatida Sharqda ham, G'arbda ham katta shuhuratga ega bo'lgan. Bulardan tashqari, Mahmud Zamahshariyning "Muqaddimat ul-adab" ("Adabiyotga kirish") asari tilshunoslik uchun ham katta ahamiyatga ega. Bu asar Xorazmshoh Alouddavla Abdulmuzaffar Otsizga bag'ishlab yozilgan. Asar besh qismdan iborat: 1)ot, 2) fe'l, 3) bog'lovchilar, 4) ot o'zgarishlari, 5) fe'l o'zgarishlari. Bundan tashqari "At-tuhfa" asari ham bor. "At-tuhfa" ning qimmatli joyi shundaki, unda lug'atdan so'ng grammatik materiallar ham beriladi. Asarning bu qismini turkiy tillarning ilk grammatikasi deyish mumkin. Turkiy til grammatikasi arab grammatikasi an'analarini asosida o'rganiladi. Arab tili grammatikasi bilan turkiy til grammatikasi solishtiriladi. Arab tilidagi grammatik tushunchalar turkiy tilda qanday ifodalanishi haqida ma'lumot beriladi. Natijada amalda solishtirma grammatikaning ilk namunasi paydo bo'ladi.

So'z tarkumlari arab tilshunosligi an'anasiiga muvofiq ism (ot), fe'l va yordamchi so'zlarga bo'linadi. Olmosh, sifat, son ham ismlar tarkibida o'rganiladi. Har qaysi so'z turkumining grammatik o'rni bilan mazmuniy xususiyatlari yoritiladi. Bu asarda so'z tarkumlarining grammatik xususiyatlari haqidagi bir qator fikrlar hozirgi kunda ham o'z qimmatini yo'qotgan emas. So'z tarkumlaridagi har qaysi grammatik ma'no ifodalovchi morfologik vositalar o'zi qo'shilayotgan asos qismning fonetik tuzilish xususiyatiga mos ravishda bir necha ko'rinishda namoyon bo'lishini bayon qiladi.

Alisher Navoiyning morfologik qarashlarini ham "Muhokamat-ul-lug'atayn" asarida bayon qilingan ayrim fikrlaridan payqab olish mumkin. U o'sha davrdagi arab grammatikasi an'anasi ko'ra, so'zlarni uch guruhg'a ajratadi: fe'llar va harakatlar (yordamchilar). Garchi Alisher Navoiy so'z tarkumlarini tasnif etishda arab an'anasiiga bo'yunsu ham, lekin turk tilining o'ziga xos xususiyatlarini, otlarning va fe'llarning xarakterli morfologik jihatlarini zukko tilshunos sifatida ochib berdi.

Fitrat so'z tarkumlari, so'zlarning grammatik kategoriyalari haqida ham izchil ma'lumot beradi. Har bir tilning morfologiyasida so'z tushunchasi markaziy o'rinni egallaydi. Fitrat ham "Sarf" asarida so'z haqida alohida to'xtaladi. Olim so'z tushunchasiga onomosiologik nuqtai nazardan,

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON, 2024

ya’ni ob’ektiv olamdan uning umumlashgan obrazining ongda aks etishi orqali bu umumlashgan obrazning muayyan moddiy vosit - tovushlar silsilasi yordamida ifodalanishi nuqtai nazaridan yondashadi.

O’zbek tilining fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisini alohida-alohida bo‘limlar sifatida izchil ravishda dastlab Fitrat o‘rgandi va o’zbek tilshunosligi tarixida o’zbek tili grammatikasiga asos soldi. Bu grammatika “Sarf” va “Nahv” nomlari bilan yuritilib, 1925-yildan 1930-yilgacha olti marta nashr qilindi. Shundan so‘ng M.Shamsiev, Sherbeklarning “O’zbek tili grammatikasi” (T., 1932) va H. Qayumiylar, S. Dolimovlarning “Grammatika” asarlari maydonga keldi. Demak, bu mualliflar Fitratdan farqli ravishda o’zbek tilshunosligiga grammatika atamasini olib kirdilar. O’zbek tilshunosligi tarixiga morfologiya va sintaksis atamalarini O. Usmonov va B. Azizovlar olib kirdilar. O’zbek tili grammatik qurilishini chuqur ilmiy tadqiq qilish 40-yillardan boshlandi. Bu harakatning yalovbardori A.G’ulomov sanaladi. U bu davrda o’zbek ilmiy morfologiyasiga doir bir qator asarlar yozdi.

Koreys tilshunosligi asoschisi Chu Su Gyong tomonidan so‘z haqidagi grammatik ta’limni ishlab chiqadi. U so‘zining tuzilishini tahlil qilar ekan, u asosiy xususiyatini leksik ma’noga ega va grammatik vazifani bajaradigan qismlarni ajratib ko‘rsatgan. Chu Su Gyong ta’limoti koreys tili grammatikasi bo‘yicha barcha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarga ta’sir ko‘rsatadi va oxirgi vaqtlargacha ko‘pchilik koreys tilshunoslarning grammatik qurulishlarni aniqlashtirib keldi. U koreys tilida so‘z turkumlarini o‘rgangan so‘zlarni so‘z turkumlari sistemasiga qarab ajratib chiqadi.

Garchi so‘zlar turli xil xususiyatga ega bo‘lsa-da, ularning barchasi so‘z turkumlarining bir qismini ta’kidlash uchun kerak bo‘ladi. Fe’l va sifatlarni leksik so‘zlar, qo‘srimchalarni esa vazifaviy deb ta’riflasak, fe’l va sifat o‘zaklari leksik so‘zlar sifatida e’tirof etiladi. Shuning uchun morfologik bosqichda sifat, fe’lni so‘z turkumi sifatida tasniflash qayta ko‘rib chiqish kerak. Odatda standart “vazifa”, “shakl”, “ma’no” orasida shakl bilan bevosa bog‘lanadi. Bu kabi so‘z turkumlarini ajratishda “yuklama” yoki “qo‘srimchalar”ni birikishiga qarab o‘zgaruvchan so‘zlar va o‘zgarmaydigan so‘zlarga bo‘lib o‘rganish muammolarini Koo Bon-gvan (구본관2005), va Choy Woong-hvan (최웅환 2010)lar ham ta’kidlab kelgan. Choi Hyungyung (최형2012) “yuklama yoki qo‘srimcha” qo‘srimishini “shakl”, “vazifa”ga taqsimlash kerak deydi. Aslida Pak Jinxo (박진호2010) koreys tilidagi so‘z turkumlarini taqsimlash mezoni asosida tasniflaydi.

Bundan tashqari koreys tilida so‘z turkumlarini Chi Xexi o‘zining “Koreys tili grammatikasi” kitobida (최재희 .한국어 문법론) so‘z turkumlarini 9 turga ajratib o’tadi.

Li Leseop (이의섭 1999) izohlashicha koreys tilida qo‘srimchalar hattoki yuklamagacha barchasi so‘z turkum doirasida bo‘lmasligini ta’kidlaydi. So‘z turkumlarini uchta me’yor “vazifa, shakl, ma’no” koreys tilining agglutinatsiyasiga mos kelmaydigan flektiv so‘zlar uchun mos bo‘lib, ma’nosini noaniqligi uchun vazifasi eng muhimligi ko‘rsatiladi. Bunday so‘z turkumlarini tasniflash me’yorida “vazifasi” gapda boshqa so‘zlar bilan qanday munosabatda bo‘lishi va gapda tutgan o‘rnini bilan bog‘liq deb izohlanadi.

Xeong (허 응) ham so‘zlarni tanlashda eng muhim mezon uning vazifasi deb aytadi. Boshqacha qilib aytganda so‘z turkumlarini tasniflash me’yorlarining eng muhimi vazifasi deb aytildi. Ayniqsa bir nechta vazifasi bor bo‘lganlar (명사 대명사, 수사 과한 기능 관형사, 부사, 접속사, 감탄사) ajratiladi.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON,2024

Kong Yongin, Kubon Gvan o‘zlarining “Bizning til grammatikasi” kitobida (고영근, 구본관 우리 말 문법론 2008) 불변어-o‘zgarmaydigan so‘zlar va 가변어-o‘zgaradigan so‘zlar so‘zlarga bo‘lib o‘rganadi.

Namgishin, Ko Yongin o‘zlarining “Standart koreys tili grammatikasi” kitobida so‘z turkumlarini tasniflash tamoyillari haqida so‘z yuritadi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab koreys tilshunosligiga nafaqat Hyeon-Bae kabi koreys tilshunoslari balki ular bilan bir qatorda bu borada dastlabki tadqiqotlar sobiq ittifoq tilshunoslari va g‘arbiy yevropa tilshunoslari tomonidan ham olib borilgan bunga misol tarzida G.Ramsdet, A.A. Xolodovich, Y. N. Mazur hamda L. B. Nikolskiy, Korpeka kabi tilshunoslarni keltirishimiz mumkin. Yuqoridagi olimlar koreya tarixida 한글 (Hangil) yaratilganidan keyin unda yozilgan asarlarni tahlil qilish orqali koreys grammatisasini o‘rgana boshlashgan. Aynan koreys tilidagi so‘z turkumlari haqida rus olimlari, Fil Kim va Korpekalar samarali ish olib borishgan. Yuqorida sanab o‘tilgan barcha tilshunoslarning asarlari asosida 2018- yil rus tilshunosi D. A. Karpeka tomonidan chop etilgan “Грамматика корейского языка” Том 1 asarida koreys tilidagi so‘z turkumlarini tasniflashini aytib o‘tgan so‘zlar ot, fe‘l ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklamalarga alohida tarif bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Abduhamid Nurmonov. O‘zbek tilshunosligi tarixi. Toshkent.
2. Д.А. Корпека. “Грамматика корейского языка” Том. 2008.
3. Ю Мазур. Грамматика корейского языка 2001.
4. Фил Ким. Грамматика современного корейского языка. Алматы -2002:281.
5. 고영근, 구본관 우리 말 문법론 2008.
6. 목정수. 한국어 문법론. 2003.
7. 최재희. 한국어 문법론. 2004.
8. 남기심, 고영근. 표준국어 문법론 2005.